

**O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy
Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamentiga a’zolarini
saylash tartibi to‘g‘risidagi
NIZOM**

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi (bundan buyon matnda Partiya deb yuritiladi)dan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti a’zolarini saylash tartibi (bundan buyon matnda Saylov deb yuritiladi)ni belgilaydi.

2. Saylov partianing Ustavi, Dasturi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti to‘g‘risidagi Nizom, partiya Markaziy Kengashi Ijroiya qo‘mitasining saylov o‘tkazish to‘g‘risidagi qarori asosida tashkil etiladi.

II. Saylovdan ko‘zlangan maqsad

3. Saylov yoshlarning huquqiy va siyosiy bilimlari, ongi va madaniyatini yuksaltirish, ularni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va amaldagi boshqa qonun hujjatlariga hurmat ruhida tarbiyalash, yoshlarda parlament faoliyatiga daxldorlik tuyg‘usini shakllantirish, yoshlarda erkin fikrlash qobiliyati va nutq madaniyatini o‘sirish, ularning faol fuqarolik pozitsiyasini yanada mustahkamlash, parlamentda Partiya elektorati manfaatlarini himoya qilish, partianing dasturiy maqsad va vazifalarini targ‘ib qilish, yoshlarni mamlakatimizdagi siyosiy jarayonlarga keng jalb etish maqsadida tashkil etiladi.

III. Saylovni tashkil etish va o‘tkazish tartibi

4. Saylovni tashkil etish va o‘tkazish partiya Markaziy Kengashi, Qoraqalpog‘iston respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman va shahar kengashlari raislari zimmasiga yuklatiladi. Ular saylovnинг tashkiliy masalalariga oid hujjatlarni, tashkiliy qo‘mita a’zolarini tasdiqlaydi.

5. Saylov ikki yarim yilda 1 marotaba 3 bosqichda o‘tkaziladi:

1-bosqich: tegishli okrugdagi tuman va shaharlarda saralash bosqichi (**23 yanvar - 6 fevral oralig‘ida**);

2-bosqich: partianing Qoraqalpog‘iston respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar kengashlaridagi bosqichi (**6 – 15 fevral oralig‘ida**);

3-bosqich: yakuniy (respublika) bosqichi (**15 – 22 fevral oralig‘ida**).

IV. Tashkiliy qo‘mita va Shtab faoliyatini tashkil etish

6. Saylov jarayonini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha uch bosqichda Tashkiliy qo‘mita tuziladi:

Tuman (shahar) partiya tashkiloti Tashkiliy qo‘mitasi;
Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar kengashi
Tashkiliy qo‘mitasi;

Markaziy Kengash Tashkiliy qo‘mitasi.

7. Tuman (shahar) hamda mintaqaviy partiya kengashlarining Tashkiliy qo‘mitasi ushbu bosqichdagi saralash jarayonida eng faol nomzodlarni Markaziy Kengash Tashkiliy qo‘mitasiga taqdim etadi. Markaziy Kengash Tashkiliy qo‘mitasi ushbu Nizom bo‘yicha nomzodlarni ko‘rib chiqib yakuniy qaror qabul qiladi.

8. Markaziy Kengash, Qoraqalpog‘iston respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman va shahar kengashlarida saylovga tayyorgarlik ko‘rish va faoliyatni muvofiqlashtirish bo‘yicha shtablar tuziladi.

9. Shtablar saylovga tayyorgarlik ko‘radi, saylov o‘tishiga tashkiliy yordam ko‘rsatadi va faoliyatni muvofiqlashtirib, tezkor ma’lumotlarni Tashkiliy qo‘mitaga taqdim etib boradi.

V. Saylovda qatnashish talablari

10. Saylovda saralash bosqichiga hujjat topshirilgan kuni o‘n sakkiz yoshga to‘lgan, lekin o‘ttiz yoshdan oshmagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi Yoshlar parlamentiga nomzod sifatida ko‘rsatiladi.

11. Ёшлилар parlamentiga nomzodini ko‘rsatish uchun partianing tuman va shahar kengashi Tashkiliy qo‘mitasiga quyidagi hujjatlar topshiriladi:

nomzod to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘zida ifoda etgan hujjatlar (anketa, shaxsni tasdiqlovchi hujjat nusxasi va 3x4 hajmdagi sifatli rasm);

partiya a’zolik guvohnomasi nusxasi;

nomzodning turli sohalarda erishgan yutuqlarini tasdiqlovchi hujjatlar nusxasi (davlat mukofotlari, sertifikat, diplom, faxriy yorliq va boshqalar);

ommaviy axborot vositalaridagi faolligini tasdiqlovchi materiallar (bosma nashrlarda chop etilgan maqolalar nusxasi, tele va radiokanallardagi chiqishlar audio va video nusxalari);

nomzodning partiya dasturiy maqsad va vazifalarini yoshlar orasida keng targ‘ib qilishga qaratilgan takliflari ifoda etilgan loyiha;

yoshlarga oid davlat siyosati sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini yoshlar orasida keng targ‘ib etish borasidagi ishlarini tasdiqlovchi hujjatlar (ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalari, targ‘ibot rasmlari);

nomzodning yoshlarga oid davlat siyosatiga doir qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan saylovoldi dasturi (taqdimot ko‘rinishida).

Saylovga taqdim etilayotgan hujjatlarni o‘zbek va rus tillarida taqdim qilish mumkin.

12. Кўйидагилар saylovda nomzod sifatida ro‘yxatga olinmaydi:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining deputati, Senat a’zosi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatlari;

partiyaga a’zo bo‘lmagan yoshlar;

muomalaga layoqatli bo‘lmagan yoshlar;

sodir etgan og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyati uchun sudlanganlik holati

tugallanmagan yoxud sudlanganligi olib tashlanmagan yoshlar.

13. Биринчи bosqichda tuman va shahar kengashi Tashkiliy qo‘mitasi nomzodlarning Ushbu Nizomning 10-12 bandlariga muvofiqligi jihatlariga e’tibor qaratadi.

Bunda xotin-qizlarning soni a’zolikka nomzodlar umumiy sonining kamida o‘ttiz foizini tashkil etishi kerak.

14. Ikkinchisi bosqichda Qoraqalpog‘iston respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar kengashlari Tashkiliy qo‘mitasi nomzodlarning quyidagi jihatlariga e’tibor qaratadi:

qonunchilik sohasidagi bilim va tajribasi;
qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha asoslantirilgan takliflar;
partiyaning faoliyatidagi faollik darajasi;
partiyaning faoliyatini huquqiy tartibga soluvchi qonun hujjatlari, shuningdek partiyaning Ustavi, Dasturi va Saylovoldi dasturini bilish darajasi;
davlat boshqaruviga oid bilim va tasavvurlari;
jamiyatimizda amalga oshirilayotgan so‘nggi islohotlar haqidagi qarashlari;
ommaviy axborot vositalaridagi faolligi, o‘zining ortidan yoshlarning ergashtirish salohiyati;
huquqiy ong va huquqiy madaniyatning qay darajada yuksakligi.

15. Сайловга taqdim etilgan hujjatlar va materiallar qaytarilmaydi.

16. Учинчи bosqichda partiyaning Markaziy Kengashi Tashkiliy qo‘mitasi tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar o‘rtasida saylovoldi dasturi yuzasidan taqdimot o‘tkaziladi.

Unda quyidagilarga e’tibor qaratiladi:
nomzodning saylovoldi dasturida yoshlarga oid muammolar va taklif etilayotgan yechim yo‘llari;
yoshlarga oid qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha bergen takliflari;
nomzodning notiqlik madaniyati, loyiha mazmunini tinglovchilarga yetkazishi;
bilimli va hozirjavobligi.

17. Markaziy Kengash Tashkiliy qo‘mitasining qaroriga binoan partiyaning faoliyatida faollik ko‘rsatgan, uning imidjini keng jamoatchilik, xususan, yoshlar orasida targ‘ib qilib, namunali xulqi bilan boshqa tengdoshlariga o‘rnak bo‘lib kelayotgan yoshlarga ustunlik taqdim etilishi mumkin.

18. Тақдимот natijalariga ko‘ra, partiya Markaziy Kengashi Tashkiliy Qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga bo‘lib o‘tgan saylovda egallagan o‘rniga mos ravishda munosib nomzodlarni yashirin ovoz berish yo‘li orqali (ma’muriy-hududiy birlik asosida) saylaydi.

VI. Nizomning kuchga kirishi

19. Mazkur Nizom O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy Kengashi Ijroiya qo‘mitasi qarori qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

VII. Yakuniy qoidalar

20. Saylovni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy ishlar O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy Kengashi, Qoraqalpog‘iston respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman va shahar kengashlari tomonidan amalga oshiriladi.